

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

“Kiritdi”

O‘zbekiston davlat  
jismoniy tarbiya va  
sport universiteti rektori  
R. Matkarimov  
“ ” 2026-y.

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va  
innovatsiyalar vazirining  
birinchi o‘rinbosari  
S. Radjabov  
“ ” 2026-y.

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi  
Sport vazirining  
o‘rinbosari  
Sh. Maxmudov  
“ ” 2026-y.

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI

**61010200 - Sport faoliyati** (*basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay-tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snovbord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stenddan otish, o‘zbek jang sana‘ti, kriket, sport akrobatikasi, pencak silat, turon*) ta’lim yo‘nalishlari uchun.

**61010300 - Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta’lim yo‘nalishi** uchun.

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kuzatuv Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma‘qullangan. 2026 yil 25 may dagi 2 -sonli majlis bayoni.**

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish hamda natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me‘yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-5924-son farmoni**, 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-60-son qarori**, 2022-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-414-son qaror va farmonlari** ijrosini sifatli bajarish ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus filialidagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturlari sport maktablari hamda Respublika Olimpiy va paralimpiy sport turlariga tayyorlash markazlarining jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan va abituriyentlarning jismoniy mashqlari bajarishdagi amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini baholashga mo‘ljallangan.

Mazkur dasturlarni tuzishda sport assotsiatsiyasi, sport federatsiyalar, oliy sport mahorati maktablari va sport maktablari takliflari inobatga olingan hamda ular tomonidan taqrizlar berilgan.

Dastur 61010200–Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi (basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snoubord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stendan o‘q otish, o‘zbek jang sana‘ti, kriket, sport akrobatikasi, pencak silat, turon, 61010300–Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kabi sport turlari bo‘yicha (kasbiy) ijodiy imtihonlarni o‘tkazish tartibi, abituriyentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy mahorati, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezonlari o‘z aksini topgan.

2026/2027 O'QUV YILI UCHUN **BASKETBOL** IXTISOSLIGIDAN KASBIY (IJODIY)  
IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI  
(Ixtisoslik bo'yicha maksimal ball - 93 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

1-test. Birinchi. 2 ballik zonadan, ikkinchi. 3 ballik zonadan 5 ta nuqtadan 10 marta to'pni savatga tashlash (tushirilgan to'plar soni va texnika baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi.				2-test. Jarima chizig'idan 10 marta savatga to'pni tashlash (tushirilgan to'plar soni va texnika baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi.				3-test. Maydonning yon chizig'i bo'ylab o'ng va chap qo'l bilan to'pni urib yurish hamda uchta fishkani aylanib o'tib halqaga to'p otish: 1.O'ng tomondan - o'ng qo'l bilan 2. Chap tomondan - chap qo'l bilan 3.Jarima chizig'idan to'pni savatga otish.				
Natija	Ball	Texnika uchun ball	Test uchun umumiy ball	Natija	Ball	Texnika uchun ball	Test uchun umumiy ball	Natija		Ball	Texnika uchun ball	Test uchun umumiy ball
								Tushirilgan to'plar soni	vaqt (soniya)			
10	20	0-10	30	10	18	0-10	28	5	27	25	0-10	35
9	18	0-10	28	9	17	0-10	27	4	27	20	0-10	30
8	16	0-10	26	8	15	0-10	25	3	27	15	0-10	25
7	14	0-10	24	7	13	0-10	23	2	27	10	0-10	20
6	12	0-10	22	6	11	0-10	21	1	27	5	0-10	15
5	10	0-10	20	5	9	0-10	19	0	27	0	0-10	10
4	8	0-10	18	4	7	0-10	17	0	27 dan ortiq	0	0	0
3	6	0-10	16	3	4	0-10	15					
2	4	0-10	14	2	1	0-10	13					
1	2	0-10	12	1	0	0-10	11					
0	0	0	0	0	0	0	0					

Har bir test mashqi son, vaqt hamda texnik jihatlardan to'g'ri va maksimal natija bilan bajarilsa, maksimal ball qo'yiladi. Lekin test mashqini bajarishda yo'l qo'yilgan har bir texnik xato uchun 1 ball olib tashlanadi, 10 ta texnik xato – minus 10 ball. 1-test – 20 ball va texnika uchun – 10 ball, jami – 30 ball.

1-test: 1.2 ballik zonadan, 2. 3 ballik zonadan 5 ta nuqtadan 10 marta to'pni savatga tashlash (tushirilgan to'plar soni va texnika baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng, bajariladi:

**Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha:**

1-testda ko'rsatilgan maksimal natija uchun - 30 ball.

28 metrda “mokkisimon” tartibda 40 soniya ichida maksimal oraliqqa yugurish bosib o‘tilgan masofa metrda o‘lchanadi.

Testni o‘tkazish shartlari:

1. Yuqori startdan, imtihon oluvchining signaliga binoan, old tomondan oldingi chiziqqa qarab, amalga oshiriladi va oyoq bilan chiziqlarga tegish majburiydir;

2. Signaldan oldin startdan chiqib ketish mumkin emas.

2-testda ko‘rsatilgan maksimal natija uchun — 33 ball.

**Sakrash chidamkorligini qabul qilish tartibi:**

1. Imtihon oluvchi abituriyentning ikki qo‘lini vertikal ko‘taradi;

2. Qo‘llar o‘g‘il bolalarga 40 sm., qiz bolalarga 30 sm. balandlikda to‘ldirma to‘p osiladi;

3. Abituriyent signal berilishi bilan maksimal darajada sakrab to‘ldirma to‘pga ikki qo‘lini tekkizishi kerak;

4. Abituriyent qo‘llari to‘ldirma to‘pga tegmay qolsa, test to‘xtatiladi va to‘g‘ri sakragan soni hisoblanadi.

**Testni o‘tkazish shartlari:**

1. Abituriyent signal berilishi bilan har bir sakrashda to‘ldirma to‘pga ikki qo‘lini tekkazishi kerak;

2. Ikki qo‘llab to‘ldirma to‘pga tegmay qolsa, test to‘xtatiladi;

3. Sakrashda ikki marta sakraganda, test to‘xtatiladi;

4. Uzoq vaqt sakrashga tayyorlanganda, test to‘xtatiladi;

5. Sakrab ikki qo‘lab to‘pga tekkazish soni aniqlanadi.

**Umumiy izoh:**

1. Abituriyentga testdan oldin tayyorgarlik uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

2. 1 va 2 testlarni bajarish uchun faqat bir marta imkoniyat beriladi.

3. Jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha umumiy test natijalariga maksimal 63 ball beriladi.

**Ixtisoslik bo‘yicha:**

**1-test. 20 ball va texnika uchun — 10 ball, jami — 30 ball.**

1-test: 1-chi 2 ochkolik zonadan va 2-chi 3 ochkolik zonadan 5 ta nuqtadan 10 marta to‘pni savatga tashlash (tushirilgan to‘plar soni va texnika baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so‘ng bajariladi.

**Test mashqini bajarishda yo‘l qo‘yiladigan xatolar:**

1. Oyoqlarni bukmasdan tik holatda to‘pni tashlash;

2. Oyoqlarni faqat bukib to‘pni tashlash;

3. Faqat testda belgilangan usulda to‘pni tashlamasa;

4. To‘pni qo‘l kafti bilan tashlash;

5. To‘pni ikkinchi qo‘l yordamida ushlamasdan tashlash;

6. Gavnani orqaga bukib to‘pni tashlash;

7. Oyoq va qo‘llarning bir vaqtda bukilib yozilmasligi;

8. Chiziqni bosib to‘pni tashlash;

9. Yon tomonlama turib to‘pni tashlash;

10. Bosh ortidan to‘pni tashlash.

**Izoh.** To‘p tashlash boshlash imtihon oluvchining signalidan so‘ng bajariladi. To‘pni savatga tashlash 3 soniya ichida amalga oshirilishi kerak. Chegaralangan chiziqni bosib to‘p tashlansa, qayta takrorlash huquqi berilmaydi va tushirilgan to‘p hisobga olinmaydi.

**2-test. 18 ball va texnika uchun — 10 ball, jami — 28 ball.**

2-test: Jarima chizig‘idan 10 marta savatga to‘pni tashlash (tushirilgan to‘plar soni va texnika baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so‘ng, bajariladi.

**Test mashqini bajarishda yo‘l qo‘yiladigan xatolar:**

1. Oyoqlarni bukmasdan tik holatda to‘pni tashlash;

2. Oyoqlarni faqat bukib to‘pni tashlash;

3. Faqat testda belgilangan usulda to‘pni tashlamasa;

4. To‘pni qo‘l kafti bilan tashlash;

5. To'pni ikkinchi qo'l yordamida ushlamasdan to'pni tashlash;
6. Gavdani orqaga bukib to'pni tashlash;
7. Oyoq va qo'llarning bir vaqtda bukilib yozilmasligi;
8. Chiziqni bosib to'pni tashlash;
9. Yon tomonlama turib to'pni tashlash;
10. Bosh ortidan to'pni tashlash.

**Izoh.** To'pni savatga tashlashni boshlash imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi. To'pni savatga tashlash 5 soniya ichida amalga oshirilishi kerak. Chegaralangan chiziqni bosib to'p tashlansa, qayta takrorlash huquqi berilmaydi va tushirilgan to'p hisobga olinmaydi.

**3-test. 25 ball va texnika uchun — 10 ball, jami — 35 ball.**

3-test: Maydonning yon chizig'i bo'ylab o'ng va chap qo'l bilan to'pni urib yurish hamda uchta fishkani aylanib o'tib halqaga to'p otish. Bunda, o'ng tomondan - o'ng qo'l bilan va chap tomondan — chap qo'l bilan to'p savatga otiladi, oxirida jarima chizig'idan to'pni savatga otish:

1. Signaldan oldin startdan chiqib ketish;
2. Fishkalararo o'tganda faqat o'ng qo'lda to'pni urib yurish;
3. Fishkalararo o'tganda faqat chap qo'lda to'pni urib yurish;
4. Shchit- tagiga yetib bormasdan va ikki qadamni bajarmasdan to'pni tashlash;
5. O'ng tomondan o'ng qo'lda, chap tomondan chap qo'lda to'p tashlamasa;
6. To'pni baland sapchitib olib yurish;
7. To'pni ikki qo'lda urib yurish;
8. Shchitdan qaytgan to'pni ilib, o'sha tomondan qayta tashlash;
9. Sakramasdan to'p tashlash;

10. To'rtinchi to'p tashlashdan so'ng, beshinchi to'p tashlashga to'pni urib yurmasdan olib borish.

**Izoh.**

1. Testni boshlash imtihon oluvchining signalidan song, bajariladi.
2. Test maydonchani yuz chiziqdan boshlanadi.
3. Sarflangan vaqt, savatga aniq tushirilgan to'plar soni va texnik harakatlarning sifati

inobatga

olinadi.

**Umumiy izoh:**

1. Abituriyentga testdan oldin mushaklarni qizdirish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.
2. Ixtisoslik fanidan barcha test natijalarining maksimal 93 ballni tashkil etadi.
3. Umumiy, jismoniy tayyorgarlik va ixtisoslik test natijalari maksimal 156 ballni tashkil

etadi.

2026/2027 O'QUV YILI UCHUN **BASKETBOL** IXTISOSLIGIDAN KASBIY (IJODIY)  
IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI  
(Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maksimal ball - 63 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

1-test: 28 metrga "mokkisimon" tartibda 40 soniya. ichida maksimal masofaga yugurish(m) (bosib o'tilgan masofa hisoblanadi)dagi			2-test :Sakrash chidamkorligi: qabul qilish tartibi – tekshiriluvchi ikki qo'lini vertikal ko'taradi; qo'llar barmoqlaridan o'g'il bolalarga 40 sm., qiz bolalarga 30 sm. to'ldirma to'p osiladi; signal berilishi bilan u maksimal marta sakrab to'ldirma to'pga ikki qo'lini tekkizishi kerak. Qo'llar to'ldirma to'pga tegmay qolsa, test to'xtatiladi va sakrash soni aniqlanadi.		
Natija (ogil bolalar)	Natija (qiz bolalar)	Ball	Natija (ogil bolalar)	Natija (qiz bolalar)	Ball
196	180	30	35	30	33
195	179	29,4	34	29	31
194	178	28,8	33	28	29
193	177	28,2	32	27	27
192	176	27,6	31	26	25
191	175	27	30	25	23
190	174	26,4	29	24	21
189	173	25,8	28	23	19
188	172	25,2	27	22	17
187	171	24,6	26	21	15
186	170	24	25	20	13
185	169	23,4	24	19	11
184	168	22,8	23	18	9
183	167	22,2	22	17	7
182	166	21,6	21	16	5
181	165	21	20	15	3
180	164	20,4	19	14	1
179	163	19,8	18 va kam	13 va kam	0
178	162	19,2			
177	161	18,6			
176	160	18			
175	159	17,4			
174	158	16,8			
173	157	16,2			
172	156	15,6			
171	155	15			
170	154	14,4			
169	153	13,8			
168	152	13,2			

167	151	12,6			
166	150	12			
165	149	11,4			
164	148	10,8			
163	147	10,2			
162	146	9,6			
161	145	9			
160	144	8,4			
159	143	7,8			
158	142	7,2			
157	141	6,6			
156	140	6			
155	139	5,4			
154	138	4,8			
153	137	4,2			
152	136	3,6			
151	135	3			
150	134	2,4			
149	133	1,8			
148	132	1,2			
147	131	0,6			
146 dan yuqori	130 dan yuqori	0			

Kafedra mudir

Imzo

F.I.Sh